

Perinatal ensefalopatiya: neonatal davrda klinik belgilari, davolash va profilaktikasi

Gulmurodova Aminabonu Zavqi qizi

Buxoro davlat tibbiyot instituti, 4-bosqich, Pediatriya yo‘nalishi

Email: a93294469@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada perinatal ensefalopatiyaning etiologiyasi, neonatal davrda uchraydigan klinik belgilari, tashxis qo‘yish usullari, davolash prinsiplari va profilaktikasi yoritilgan. Ayniqsa, erta tashxis qo‘yish, terapeutik gipotermiya va individual reabilitatsiya dasturlarining ahamiyati ta’kidlangan. Maqola pediatriya va neonatologiya sohasida tahsil olayotgan talabalarga va amaliy shifokorlarga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: perinatal ensefalopatiya, neonatal davr, gipoksik-ishemik ensefalopatiya, tug‘ruq travmasi, gipoksiya, asfiksiya, nevrologik simptomlar, mushak tonusi buzilishi, neonatologiya, erta tashxis, reabilitatsiya, terapeutik gipotermiya, profilaktika

Аннотация: В данной статье рассматриваются этиология перинатальной энцефалопатии, клинические проявления в неонатальном периоде, методы диагностики, принципы лечения и подходы к профилактике. Особое внимание уделяется важности ранней диагностики, терапевтической гипотермии и индивидуальных программ реабилитации. Статья предназначена для студентов, обучающихся по педиатрическому профилю, а также для практикующих врачей-неонатологов.

Abstract: This article discusses the etiology of perinatal encephalopathy, its clinical manifestations during the neonatal period, diagnostic methods, treatment principles, and approaches to prevention. Special emphasis is placed on the importance of early diagnosis, therapeutic hypothermia, and individualized rehabilitation programs. The article is intended for students in pediatric training and practicing neonatologists.

Kirish

Perinatal ensefalopatiya — bu perinatal davrda (homiladorlikning oxirgi haftalaridan to tug‘ilganidan keyingi 7 kun ichida) homila yoki yangi tug‘ilgan chaqaloqning markaziy asab tizimi zararlanishi bilan kechadigan murakkab patologik holatdir. Ushbu holat odatda gipoksiya, asfiksiya, tug‘ruq jarayonidagi shikastlanishlar yoki metabolik buzilishlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

So‘nggi yillarda chaqaloqlar o‘limi va nogironlikka olib keluvchi omillar orasida perinatal ensefalopatiya yuqori o‘rinda turadi. Ayniqsa, gipoksik-ishemik ensefalopatiya holatlari keng tarqalgan bo‘lib, ular tug‘ilganidan so‘ng darhol aniqlanmasa, og‘ir nevrologik oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Maqolaning asosiy maqsadi :

Perinatal ensefalopatiyaning neonatal davrdagi klinik belgilari, tashxis qo‘yish mezonlari, zamonaviy davolash usullari va samarali profilaktika choralarini yoritishdan iborat.

1. Perinatal ensefalopatiyaning etiologiyasi

Perinatal ensefalopatiyaning asosiy sabablaridan biri bu intrauterin va tug‘ruq davridagi gipoksiya hisoblanadi. Boshqa muhim sabablar quyidagilardir:

Asfiksiya (tug‘ruq vaqtida nafas yetishmovchiligi)

Tug‘ruq travmasi (instrumental tug‘ruqlar, uzoq davom etgan tug‘ruq)

Intrauterin infeksiyalar (TORCH kompleksi)

Onaning surunkali kasalliklari (qandli diabet, gestoz, gipertoniya)

Metabolik buzilishlar (gipoglikemiya, giperbilirubinemiya)

2. Klinik belgilari

Mushak tonusi buzilishi (gipotonus/gipertonus)

Emish refleksining sustligi

Ko‘z harakatlarining koordinatsiyasizligi

Tinch emas uyqu, yig‘ining o‘zgarishi

Tremor, tiklar, klonuslar

Og‘ir hollarda: apneya, bradikardiya, konvulsiyalar

Klinik ko‘rinishlar og‘irlik darajasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Yengil shakllarda o‘z vaqtida tashxis va reabilitatsiya bilan to‘liq tiklanish mumkin, og‘ir hollarda esa doimiy nevrologik buzilishlar rivojlanadi.

3. Tashxis qo‘yish usullari

Nevrosonografiya (UZI) — intraventrikulyar qon quyilishlar yoki leykomalatsiyani aniqlash

Elektroensefalografiya (EEG) — epileptik faollikni baholash

KT/MRI — miya tuzilmasini aniq vizualizatsiya qilish

Refleksologik baholash — tug‘ma reflekslarning holatini tekshirish

4. Davolash va reabilitatsiya prinsiplari

Terapevtik gipotermiya (miyaning haroratini 33–34°C gacha pasaytirish)

Neyroprotektorlar va metabolik vositalar bilan farmakoterapiya

Fizioterapiya va massaj — mushak tonusini normallashtirish

Refleksoterapiya — asab tizimini faollashtirish

Logopedik va psixologik yondashuv — rivojlanish kechikishida

Ota-onalar bilan treninglar — parvarish va uy reabilitatsiyasi uchun

5. Profilaktika

Homiladorlik vaqtida muntazam patronaj nazorati

Infeksiyalarning oldini olish va davolash

Tug‘ruq sharoitlarini yaxshilash

Neonatal kuzatuv va skrining

Yuqori xavf guruhibiga kiruvchi chaqaloqlarni erta reabilitatsiyaga jalb qilish

Xulosa

Perinatal ensefalopatiya chaqaloqlarda uchraydigan og‘ir nevrologik holat bo‘lib, uning asosiy sabablari gipoksiya, tug‘ruq travmalari va metabolik buzilishlar bilan bog‘liq. Uning erta aniqlanishi, terapevtik gipotermiya va reabilitatsiya orqali ko‘plab asoratlarning

oldi olinadi. Shuningdek, pediatr, neonatolog, nevropatolog va reabilitologlar o‘rtasidagi hamkorlik — davolash samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Лобзин Ю.В., Подымова И.В. Неонатология. СПб: СпецЛит, 2018.2. Nelson Textbook of Pediatrics, 21st Edition — Kliegman R. et al.
3. Tibbiyot ensiklopediyasi — Toshkent: Fan, 2017 (PDF)
4. Murtazayev A., Qodirov M. Pediatriyada klinik propedevtika — Kitobxon.
5. WHO Guidelines on Perinatal Care — Geneva: WHO, 2016
6. Sidorova I.S. et al. Perinatal hypoxic-ischemic encephalopathy. Russian Journal of Pediatrics, 2020